KADRLAR TAYYORLASHDA OILA, MAKTAB VA ISHLAB CHIQARISH HAMKORLIGI

I.Karimov, Qo'qon DU professori, p.f.n.

Maqolada kadrlar tayyorlashda oila, maktab va ishlab chiqarish hamkorligini amalga oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar yoritilgan.

Jamiyatda bozor iqtisodiyoti munosabatlari keng quloch yozar ekan, bunda insonni bu munosabatlarga qanday moslashishi, ta'limda, mutaxassis tayyorlashda ko'proq nimalarga e'tibor berish zarurligi haqidagi masalalar tabiiy ravishda ko'plab bahs va tortushuvlarga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda har bir ish sohasida malakali mutaxassisga talab kuchli. Kadrlar tayyorlashning asosiy mohiyati jamiyatga yetuk, bilimli va malakali mutaxassislarni tayyorlash ekan, yoshlarning intellektual shakllanishi faqatgina bozor iqtisodiyoti munosabatlariga mos bo'lmay, shuningdek, umuminsoniy, tsivilizatsiya talablariga javob beruvchi jahon miqyosidagi saviya va andoza (standart) larga ham to'g'ri kelishi zarur. Shuni ta'kidlash lozimki, jamiyatning rivojlanish jarayonida mafkura asosiy manba, poydevor bo'lib, inson hayoti va faoliyatida namoyon bo'ladi.

Oila tarbiyaning o'chog'i hisoblanadi. Oilada tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardir: maktab bilan birgalikda bolani hayotga, jamiyatdagi faol mehnatga tayyorlash, unga aqliy, ahloqiy, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, estetik, jismoniy mehnat va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiya berish. Maktab davlatning ta'lim-tarbiya muassasasi sifatida oilaviy tarbiyaga katta ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra har bir ota-ona maktab jamoasining talablarini bajarishlari shart. Ota-onalar va bolalarning o'zaro mehr-muhabbatiga asoslangan munosabatlar shaxs tarbiyasida muhim omildir. Zero, bola shaxsi, tabiati, ahloqiy odati va dunyoqarashining tarkib topishi oiladan boshlanadi.

Bunda ota-onalarning o'rni va roli kattadir. Buning uchun avvalo ota-onalarning o'zlari yuqoridagi fazilatlarga ega bo'lmog'i lozim. Chunki ayni shu davrdan boshlab bolalarda insonlarga, atrof-muhitga, bo'layotgan voqea va hodisalarga nisbatan munosabatlar shakllana boshlaydi.

Inson tirik ekan o'z ehtiyojini qondirishni istaydi. Insonlar yaxshi yashash ehtiyojining talab darajasida bo'lishi uchun, o'z Vatani uchun kurashmog'i, barchaga foyda keltiradigan va ezgulikka xizmat qiladigan ishlar bilan shug'ullanmoqlari kerak. Ta'lim muassasalarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarida yoshlarda dunyoqarash, iymon-ə'tiqodni shakllantirish, ularga etik-əstetik tarbiya berish, qonun-me'yorlarni tushuntirish, huquqiy tarbiyani rivojlantirish, davlat tilini mukammal o'zlashtirish, chet tillardan birini esa erkin gaplashish darajasida o'rgatish, kompyuter asoslarini singdirish lozim.

Yoshlarning tarbiyasi va intellektual salohiyati o'rta ta'limda o'sadi, rivojlanadi va bilish faoliyatining asosiy fundamenti vujudga keladi, ya'ni ruhiy-ahloqiy yo'nalishlar va dunyoqarash asoslari shu ta'lim tizimida yetiladi. Ta'lim tizimida tabaqalashtirib o'qitishni amalga oshirish lozim. Chunki hamma o'quvchining iqtidori, qobiliyati va salohiyati barobar emas. Qolaversa, bir sinf xonasida 30-35 o'quvchini bir paytning o'zida bilimini baholab ham, barobar tushuntirib ham bo'lmaydi. Shuning uchun 5-sinfdan boshlab, o'quvchilarni qiziqishi, intilishi, iqtidori va qobiliyatiga qarab, guruhlarga ajratib o'qitish lozim. Bunda, kasb-hunar yo'nalishidagi guruhlarni ham tashkillash mumkin. Bu bilan avvalo o'quvchilarni keyingi hayot faoliyati uchun zamin yaratish bilan birga biror-bir kasb-hunarni tanlashga zamin yaratiladi. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida esa mutaxassislik kasblari uchun zaruriy ilmiy-ma'naviy ozuqa berilishi, ishlab chiqarish, boshqaruv va boshqa mutaxassislarni talab qilgan korxona-muassasalar bilan aloqada bo'lib, yoshlarni turli kasblarga tayyorlash lozim. Ijtimoiy-gumanitar fanlar esa yoshlarni dunyoqarash asoslari, zamonaviy talablarning nazariy asoslari,

xalqaro maydonga chiqish, jamiyatning jahon miqyosidagi o'rni va muammolari kabi bilimlar bilan qurollantirishi maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim tizimida yoshlar umuminsoniy axloq me'yorlari, umumbashariy va milliy qadriyatlarni o'zida jo qilishlari, kompyuter asoslarini to'liq o'rganishlari, 1-2 xil chet tilini yaxshi bilishlari va bozor iqtisodiyoti munosabatlarini o'rganishlari bilan oliy o'quv yurti talablariga javob berishlari, ayni chog'da mutaxassislik, boshqaruv asoslari va jahon standarti talablarini o'rgangan holda xalq xo'jaligi va ishlab chiqarish korxonalarida o'z saviyalari va tajribalarini oshirishlari natijasida o'z sohalari bo'yicha yetuk zamonaviy mutaxassis bo'lib etishishlari mumkin. Bunda rivojlangan davlatlardagi kabi ishlab chiqarishdagi ilg'or ishchi-xizmatchilar va olimlarni o'quv dargohlariga jalb etilishi, talabalar sinov-imtihonlarini ishlab chiqarish korxonalarida topshirishlari maqsadga muvofiqdir. Jamiyat hayotining barcha bo'g'inlarida rivojlanish omillarini qidirish borasida rivojlangan davlatlarning ta'lim sohasidagi ish uslublarini tatbiq qilish nechog'liq naf keltirishi mumkin bo'lsa, yoshlarda intellektual salohiyatni o'stirish uchun ota-onalar o'quv yurtlari va ishlab chiqarish korxonalari bilan birgalikda yetuk, komil insonni shakllantirishlari, jamiyatga foyda keltiruvchi mutaxassis-kadrlar tayyorlashga harakat qilish birinchi darajali vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli farmoni.

2. Karimov I. Texnologiya ta'limi metodikasi: O'quv qo'llanma. T.: Adabiyot uchqunlari, 2021. – 232 b.

3. Karimov I., Shomirzaev M. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma. T.: Universitet, 2020. – 190 b.